



# DFF - Khorezm Insulation Group

<b>Mamlakat:</b>	O'ZBEKISTON
<b>Loyiha ID raqami:</b>	57466
<b>Faoliyat sohasi:</b>	Qurilish materiallari va bog' jihozlari hamda ularning yetkazib beruvchi dilerlari
<b>Bildirishnoma turi:</b>	XUSUSIY
<b>Ekologik toifasi:</b>	B
<b>Tasdiqlangan sana:</b>	26 May 2026
<b>Qaysi bosqichdaligi:</b>	Tadqiqot bosqichida, yakuniy ko'rib chiqish jarayonida
<b>Ingliz tilida e'lon qilingan sana:</b>	27 May 2026

Axborot olish imkoniyati to'g'risidagi yo'riqnomaning 1.4.2 (iii) bo'limiga muvofiq: "Direktorlar Kengashi tasdiqlash vakolatini Bank rahbariyatiga topshirgan holatlarda, Bank rahbariyati tomonidan tasdiqlangan loyihalar uchun Loyiha xulosa hujjati (PSD) Bankning a'zo mamlakatiga tegishli e'tirozsiz xabarnoma davri boshida, YTTBni tashkil etuvchi Bitimning 2-sahifasidagi 13-moddasi (iii) bandiga muvofiq oshkor qilinishi lozim".

## Loyiha tavsifi

Kompaniyaga 29 million AQSH dollarigacha (25 million yevro ekvivalentidan oshmagan miqdorda) kafolatlangan kredit (senior secured loan) taqdim etish, shu jumladan umumiy 21,4 million AQSH dollaridan tashkil etuvchi ikkita transh va 7,6 million AQSH dollari miqdoridagi majburiy bo'lmagan transhdan iborat bo'lib, quyidagilarni moliyalashtirish uchun ajratiladi: (i) ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish; va (ii) balansni qayta tuzish.

## Loyiha maqsadi

Loyiha O'zbekistondagi issiqlik izolyatsiyasi sektorida raqobatbardoshlikni oshirish va malaka oshirishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lib, bazalt tolalik mineral plitalarga ortib borayotgan talabni qondirish maqsadida ishlab chiqarish quvvatini 100,000 tonnagacha oshirish, mavjud ishlab chiqarishdagi quvvat cheklovlarini bartaraf etish, ishlab chiqarish ko'lamining kengayishi hisobiga xarajat samaradorligini yaxshilash hamda yetishmayotgan texnik ko'nikmalarni rivojlantirish uchun maqsadli o'quv dasturlarini joriy etishni nazarda tutadi.

## O'tish davri ta'siri

ETI balli: 80

- Raqobatbardoshlik:** Kompaniya ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va energiya samarador issiqlik izolyatsiya materiallarini yetkazib berish orqali operatsion samaradorlikni va bozordagi o'rni mustahkamlaydi.
- Inklyuzivlik:** Loyiha bozor talablariga mos texnik ko'nikmalar va o'quv imkoniyatlariga kirishni kengaytirish orqali inklyuziv o'tishni qo'llab-quvvatlaydi.

## Mijoz haqida ma'lumot

Khorezm Insulation Group MChJ QK

Khorezm Insulation Group MChJ QK ("Kompaniya") O'zbekistonda bazalt toshidan tayyorlangan issiqlik izolyatsiya plitalarining yetakchi ishlab chiqaruvchilaridan biri hisoblanadi. 2021-yilda tashkil etilgan Kompaniya Urganch shahrida yiliga 30,000 tonna quvvatga ega zamonaviy ishlab chiqarish majmuasini boshqaradi.

## YTTB moliyaviy xulosasi

29,000,000.00 AQSh dollari

Kompaniyaga 29 million AQSh dollari miqdorida kafolatlangan kredit taqdim etish, ikki qismdan iborat: 21,4 million AQSh dollari miqdoridagi transh va 7,6 million AQSh dollari miqdoridagi majburiy bo'lmagan transh.

## Loyihaning umumiy qiymati

29,000,000.00 AQSh dollari

## Qo'shimchaliklar (Additionality)

YTTBning qo'shimchaligi (i) mahalliy bozorda mavjud bo'lmagan, uzoq muddatli va imtiyozli moliyalashtirishni taqdim etish va (II) strategik qo'llab-quvvatlash va kuchaytirilgan nazorat orqali asosiy xavflarni kamaytirishdan kelib chiqadi.

## Ekologik-ijtimoiy xulosa

Loyiha B toifasiga tasniflangan (2024 ESP). Ekologik va ijtimoiy ekspertiza (ESDD) natijalariga ko'ra, loyiha bilan bog'liq ekologik va ijtimoiy (E&S) risklar Xalqaro ilg'or tajriba (GIP) va Ekologik va ijtimoiy harakatlar rejasi (ESAP) ga amal qilgan holda osonlikcha bartaraf etish mumkinligi aniqlandi. Ekologik va ijtimoiy ekspertiza (ESDD) ichki tartibda amalga oshirilib, mijoz so'rovnomasi va Kompaniya hujjatlarini ko'rib chiqishni o'z ichiga olgan. Kompaniya bilan Ekologik va ijtimoiy harakatlar rejasi (ESAP) kelishilgan. Kompaniya o'zining ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'liq mehnat, ekologik, sog'liq va xavfsizlik risklarini yaxshi tushunadi hamda loyihani Bankning Ekologik va ijtimoiy talablari (ESR) ga muvofiq amalga oshirish uchun yetarli salohiyatga ega. Kompaniya ISO 9001 (Sifat menejmenti) standarti bo'yicha sertifikatlangan. Kompaniya ishlab chiqarishda foydalaniladigan bazalt toshini yetkazib beruvchi o'z kareriga ega bo'lib, bu asosiy ta'minot zanjirining vertikal integratsiyasini ta'minlaydi.

2027-yilgacha amal qiluvchi keng qamrovli Kollektiv shartnoma mavjud bo'lib, u barcha xodimlarga, jumladan bazalt karerida ishlovchilarga ham tatbiq etiladi. Bu tog'-kon sektoridagi xodimlarga sog'liqni sug'urtalash, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralariga va belgilangan kompensatsiyaga teng kirishni kafolatlaydi. Shuningdek, ularning mehnat muhofazasi va xavfsizligi dasturlarida to'liq ishtirok etishi hamda asosiy ishlab chiqarish majmuasi xodimlari bilan teng asosda ichki shikoyat mexanizmlaridan foydalanishini ta'minlaydi. Xodimlar uchun shikoyat mexanizmi joriy etilgan va amalda ishlamoqda. Pudratchilarni boshqarish, shuningdek chiqindilar va suv resurslarini boshqarish bo'yicha jarayonlar ham yo'lga qo'yilgan. ESAP doirasida Kadrlar siyosatini EBRD ESR 2 talablariga moslashtirish talab etiladi, jumladan Gender asosidagi zo'rvonlik va tazyiqlar (GBVH), ish sharoitlari va shartlari, mehnat shartnomasini bekor qilish, qisqartirish jarayonlari, jamoaviy muzokaralar hamda shikoyat mexanizmi bo'yicha ma'lumotlarni qamrab olishi lozim. Kompaniyada GBVH bilan bog'liq aniq muammolar aniqlanmagan bo'lsa-da, ESAP ushbu yo'nalishda treninglar va xabardorlik kampaniyalarini joriy etishni ham nazarda tutadi.

ESAP pudratchilar bo'yicha ekologik va ijtimoiy skrining hamda monitoringni davom ettirishni talab qiladi, shuningdek Mehnat xavfsizligi va salomatligi (OSH) siyosati va tartiblarining rasmiy ravishda joriy etilishi hamda bazalt kareri ishchilariga yetkazilishini ta'minlaydi. ESAP doirasida KPI ko'rsatkichlarini Kompaniyaning mavjud ESMS tizimiga integratsiya qilish ham nazarda tutilgan. Bank loyihani yillik ekologik va ijtimoiy hisobotlarni ko'rib chiqish, shuningdek zarurat tug'ilganda joyiga tashriflar o'tkazish orqali monitoring qiladi.

## Yashil baholash

Loyiha YTTBning to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtiriladigan investitsiyalar uchun Parij kelishuviga muvofiqlik yondashuvi asosida Parij kelishuvining iqlim o'zgarishini yumshatish va moslashuv maqsadlariga muvofiq deb baholangan. Loyiha Parij kelishuvining iqlim o'zgarishini yumshatish

maqsadlariga muvofiq hisoblanadi, chunki u ko'p tomonlama taraqqiyot banklarining o'zaro kelishilgan ro'yxatida energiya talabchan bo'lmagan sanoat tarmoqlari toifasiga kiritilgan.

Loyiha Parij kelishuvining moslashuv maqsadlariga ham muvofiq hisoblanadi, chunki unda jiddiy jismoniy iqlim risklari aniqlanmagan va u milliy moslashuv siyosatlariga hamda kengroq tizimning iqlimga chidamliligiga zid kelmaydi.

YTTB moliyalashtirishining 50 foizi yashil moliyalashtirish sifatida tasniflanadi, chunki u iqlim o'zgarishini yumshatish maqsadlariga xizmat qiluvchi faoliyatlarni qo'llab-quvvatlaydi. Mazkur tasnif YTTB investitsiyalarining yashil moliyalashtirish ulushini aniqlash metodologiyasining 4.8-bo'limiga *muvofiq amalga oshirilgan bo'lib, ushbu bo'lim qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligini oshirish yoki boshqa past uglerodli texnologiyalarda foydalanish uchun maxsus mo'ljallangan butlovchi qismlar, uskunalari yoki infratuzilmani ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlovchi loyihalarni qamrab oladi.*

## Texnik ko'mak (TK) va grantlar

Texnik hamkorlik (TC) mablag'lari quyidagilar uchun safarbar etilgan: (i) Yaponiya–YTTB Hamkorlik jamg'armasi hisobidan yuridik due diligence xarajatlarning bir qismini qoplash va (ii) Maxsus aksiyadorlar jamg'armasi hisobidan IFRS auditini moliyalashtirish.

## Kompaniyaning aloqa ma'lumotlari

Ismoiljon Nazarov

[i.nazarov@sagroup.uz](mailto:i.nazarov@sagroup.uz)

<https://en.thermoplus.uz/about/>

1D, Sanoatchilar ko'chasi, Ashxobod MFY, Urganch Shahri, Khorezm viloyati, O'zbekiston

## PSD so'nggi yangilangan sana

27 May 2025

## O'tish davri nima

O'tish davri ta'sirini baholash bo'yicha YTTB yondashuvi haqidagi qo'shimcha ma'lumotni [mana bu havoladan](#) olishingiz mumkin.

## Loyihalarda ishtirok etish uchun imkoniyatlar

Loyihada yoki xaridlarda ishtirok etish uchun mijoz kompaniyaga murojaat qiling.

YTTB bilan (xaridlarga oid bo'lmagan masalalarda) hamkorlik qilish uchun quyidagi telefon yoki elektron pochta orqali bog'laning:

Tel: +44 20 7338 7168

E-manzil: [projectenquiries@ebrd.com](mailto:projectenquiries@ebrd.com)

Davlat sektoridagi loyihalar uchun [YTTB xaridlari](#) sahifasiga o'ting:

Tel: +44 20 7338 6794

E-manzil: [procurement@ebrd.com](mailto:procurement@ebrd.com)

## Umumiy ma'lumotlar

Aniq so'rovlar [YTTB so'rovlar shakli](#)dan foydalangan holda berilishi mumkin.

## Ekologik va ijtimoiy siyosat (ESP)

YTTB o'zining "ekologik jihatdan mas'ul va barqaror rivojlantirish" tashabbusini ilgari surishda [Ekologik va ijtimoiy siyosat](#) va uning tarkibiy qismi bo'lgan loyiha talablari (PR) Bank loyihasini amalda qo'llash tartibini belgilab beradi. ESP va PR tegishli milliy qonunchilik doirasida Bank mijozlarining keng jamoatchilikka axborot berishi va maslahatlashishini ta'minlash, shuningdek manfaatdor tomonlarning xavotirlari va shikoyatlarini, ayniqsa, ekologik va ijtimoiy muammolarni ko'rib chiqish va hal qilishga yordam beradigan mexanizmni yaratishdagi aniq talablarni o'z ichiga oladi. Loyihaning ekologik va ijtimoiy risklarni va ta'sirining mohiyati va ko'lamidan kelib chiqqan holda, zarurat tug'ilganda, YTTB o'z mijozlaridan qo'shimcha ravishda loyihalarning risklarni va ta'sirlari haqida ma'lumotni oshkor qilishni, shuningdek, manfaatdor tomonlar bilan batafsil fikr almashish va muammolar yuzasidan choralar ko'rilishini talab qiladi.

Bu sohada YTTBning tajribasi bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar ESPning quyidagi [sahifasida](#) keltirilgan.

## Ish faoliyatidagi halollik va belgilangan me'yorlarga rioya qilish

YTTBning muvofiqlik nazorati boshqarmasi (OCCO) Bankda mas'uliyatli boshqaruvga ko'maklashish bilan birga Bank faoliyatining barcha jabhalarida eng yuqori standartlarda ish olib borilishini va barcha jarayonlar ilg'or xalqaro tajribalarga muvofiq bo'lishini ta'minlaydi. Bankning barcha mijozlari uchun ularning ish faoliyatidagi halolligini tekshirishdan maqsad, Bank loyihalari uchun qabul qilinishi mumkin bo'lmagan huquqiy va nufuzga oid risklarga yo'l qo'yilmaslikdan iborat. Bank nuqtai nazariga ko'ra, loyihani dastlabki baholash va tasdiqlash bosqichida muammoli jihatlarni aniqlash va ularni bartaraf qilish Bank faoliyati nufuziga putur yetkazmaslikning eng samarali vositasidir. OCCO ushbu profilaktika chora-tadbirlarida muhim ahamiyatga egaligi bilan birga investitsiya qilinganidan keyingi davrda Bankning nufuziga xavf soladigan risklarni nazorat qilishga yordam beradi.

OCCO, shuningdek, YTTB tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar doirasidagi firibgarlik, korrupsiya va lavozimni suiiste'mol qilish bo'yicha ma'lumotni tekshiruvchi mas'ul hisoblanadi. Agar kimningdir Bank ichida yoki undan tashqarida firibgarlik yoki korrupsiya holatlari kuzatilayotganligi haqida gumoni bo'lsa, u muvofiqlik nazorati boshqarmasi boshlig'iga bu holat haqida yozma tarzda [compliance@ebrd.com](mailto:compliance@ebrd.com) elektron manzili orqali xabar qilishi lozim. Barcha bildirilgan daliliy ma'lumotlar tegishli choralar ko'rish uchun OCCO tomonidan ko'rib chiqiladi. Barcha xabarlar, shu jumladan anonym tarzidagi xabarlar ham tekshirib chiqiladi. Bu turdagi xabarlar istalgan tilda, jumladan Bank faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatdagi rasmiy tilda tayyorlanishi mumkin. Bunday ma'lumotlar yaxshi niyatni ko'zlashi maqsadga muvofiqdir.

## Axborotdan erkin foydalanish siyosati (AIP)

2020-yilning 1-yanvarida kuchga kirgan IAP YTTBning strategiyalari, siyosatlari va amaliyotlarini yaxshiroq tushunish va bilishga ko'maklashish uchun manfaatdor tomonlarga ma'lumotlarni ochiqlash

bilan birga maslahatlashuvlar tartibini belgilab beradi. YTTB veb-saytidan qanday ma'lumotlar olish mumkinligini bilish uchun [Axborotdan foydalanish siyosati](#) sahifasiga o'ting.

Muayyan savollaringizni [YTTBning ma'lumot so'rovi](#) orqali yuborishingiz mumkin.

## Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (IPAM)

Agar jismoniy yoki yuridik shaxslarning ekologik-ijtimoiy sohadagi yoki axborotni oshkor qilish borasidagi xavotirlarini (masalan, loyiha darajasida mijozlar tomonidan yaratilgan shikoyatlar mexanizmi yoki Bankning amaliyot boshqaruvi bilan bevosita o'zaro aloqa qilish orqali) qanoatlantirishga bo'lgan urinishlari samarasiz bo'lsa, ular YTTBning hisobdorlik mexanizmi ya'ni loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi yordamida (IPAM) o'zlarining o'sha xavotirlarini bildirishlari mumkin.

Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (IPAM), arizachilarning fikriga ko'ra, zarar yetkazishga ulgurgan yoki kelajakda zarar yetkazishi mumkin bo'lgan loyihaning muammolarini mustaqil ravishda baholaydi. Ushbu mexanizmning vazifalari quyidagilardan iborat: - ekologik-ijtimoiy va axborotni oshkor etish bo'yicha muammolarni hal qilish uchun loyiha ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rnatish va muloqotlarni olib borish; - Bank tomonidan ishlab chiqilgan [Ekologik va ijtimoiy siyosat](#) talablariga, shuningdek loyihaga oid tegishli [Axborotdan erkin foydalanish siyosati](#) qoidalariga rioya qilinishini baholash; - zarurat tug'ilganda, ushbu mezonlarga rioya qilmaslik holatlarini bartaraf etish, kelgusida Bank tomonidan ularni buzish holatlariga nisbatan ko'riladigan choralarini ko'zda tutish.

IPAM va uning vakolatlari haqida batafsil ma'lumot olish, ko'rib chiqilishi kerak bo'ladigan [shikoyatlarni jo'natish](#) uchun [Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi vebsaytiga](#) kirishingiz yoki tavsiyalar olish hamda IPAM haqida qo'shimcha ma'lumot olish va shikoyat jo'natish uchun [ipam@ebrd.com](mailto:ipam@ebrd.com) electron pochta orqali biz bilan bog'lanishingiz mumkin.